

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

**Qo'lyozma huquqida**

**UDK: 336.713:330.332(575.1)**

**ABIYEV DAVRON ILXOMOVICH**

**TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISH  
YO'LLARI**

**08.00.07 – «Moliya, pul muomalasi va kredit»**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

**ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan**

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy raxbar: prof. J.X. Ataniyazov**

**Toshkent shahri – 2024 yil**

## MUNDARIJA:

|                                                                                                                          |            |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| <b>KIRISH.....</b>                                                                                                       | <b>3</b>   |
| <b>I BOB. TIJORAT BANKLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINING UMUMNAZARIY ASOSLARI .....</b>                                     | <b>11</b>  |
| 1.1. Tijorat banklari investitsion faoliyatining nazariy jihatlari.....                                                  | 11         |
| 1.2. Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini belgilovchi o‘ziga xos xususiyatlar.....                              | 21         |
| 1.3. Tijorat banklari investitsiya faoliyatining asosiy shakllari va ularga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar.....             | 34         |
| Birinchi bob bo‘yicha xulosalar.....                                                                                     | 44         |
| <b>II BOB. TIJORAT BANKLARIDA INVESTITSION FAOLIYATNI TASHKIL ETISH VA AMALGA OSHIRISHNING JORIY HOLATI TAHLILI.....</b> | <b>46</b>  |
| 2.1. Bank tizimining investitsion salohiyati tahlili.....                                                                | 46         |
| 2.2. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi investitsiya faoliyati tahlili.....                              | 54         |
| 2.3. Tijorat banklari investitsion faoliyatining amaldagi holati tahlili (“O‘zsanoatqurilishbank” ATB misolida) .....    | 74         |
| Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar.....                                                                                     | 89         |
| <b>III BOB. O‘ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI.....</b>                        | <b>91</b>  |
| 3.1. Tijorat banklarida investitsiya siyosatini shakllantirish va samaradorligini oshirish istiqbollari.....             | 91         |
| 3.2. Zamonaviy sharoitda tijorat banklari investitsion faolligini oshirishning istiqbolli yo‘nalishlari.....             | 102        |
| Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar.....                                                                                     | 112        |
| <b>XULOSA.....</b>                                                                                                       | <b>115</b> |
| <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>                                                                           | <b>118</b> |

## **KIRISH falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi.**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahonda yuz berayotgan makroiqtisodiy o'zgarishlar, xalqaro moliya bozorlaridagi konyunkturaviy tebranishlar, yuqori inflyatsion kutilmalar, moliyaviy resurslarga bo'lgan talabning yuqoriligi sharoitida global darajada investitsion oqimlarning qisqarishi va banklarning kredit portfelida muammoli kreditlar ulushining ortishi bilan bog'liq holatlar tijorat banklari investitsion faoliyati samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. "2023-yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning global darajadagi hajmi 2022-yilga nisbatan 2 foizga kamayib, 1,3 trln. AQSh dollarini tashkil etgan, infratuzilmani rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan loyihaviy moliyalashtirish hajmi esa 26 foizga pasaygan"<sup>1</sup>. Bu ko'rsatkichga global iqtisodiyotdagi konyunkturaviy tebranishlar tufayli jahonning ko'plab mamlakatlaridagi moliyaviy institutlar investitsion faolligining pasayishi sabab bo'ldi. Bu sharoitda tijorat banklari investitsion faolligini oshirish maqsadida arzon resurslarni jalb qilish, banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faolligini oshirish, past riskli va yuqori daromadli aktivlarga resurslarni yo'naltirish bilan bir qatorda investitsiya portfeli sifatini yaxshilash, yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda sinditsiyalashtirilgan kreditlardan foydalanishga alohida e'tibor berishni taqozo etmoqda.

Jahonda tijorat banklarining investitsion faoliyati samaradorligini oshirish, "yashil" loyihalarga resurslarni yo'naltirish, investitsion loyihalarning risklilik va foydalilik darajasini aniqlash, investitsion loyihalar samaradorligini monitoring qilish tizimini takomillashtirish, investitsion portfelni diversifikatsiyalash, banklarning moliya bozoridagi ishtirokini faollashtirish uchun puxta investitsion siyosat ishlab chiqish, investitsion loyihalar ekspertizasini samarali tashkil etish orqali banklar rentabelligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Banklar investitsion portfelini samarali boshqarish, investitsion faoliyat bilan bog'liq risklarni minimallashtirish, banklarning dividend siyosati va foiz siyosatida investorlar bilan bog'liq munosabatlarni mustahkamlash bo'yicha qator ilmiy

---

<sup>1</sup> [https://unctad.org/system/files/official-document/wir2024\\_overview\\_ru.pdf](https://unctad.org/system/files/official-document/wir2024_overview_ru.pdf)

tadqiqot ishlari amalga oshirilganiga qaramasdan, banklar investitsion portfelidagi harakatsiz aktivlarni kamaytirish, yuqori likvidli aktivlarga resurslarni yoʻnaltirish, xorijiy banklar bilan hamkorlikda yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, banklarning resurs bazasini kengaytirish masalalari kompleks va tizimli oʻrganilmaganligi, mazkur yoʻnalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurligini koʻrsatmoqda.

Oʻzbekistonda banklarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va bank xizmatlarining yangi standartlarini joriy etish, banklar faoliyatini transformatsiya qilish, ustav kapitalini bosqichma-bosqich oshirish sharoitida qimmatli qogʻozlar bozoridagi faolligini kuchaytirish, moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish, strategik xorijiy investorlarni jalb qilish va moliya tizimining xalqaro moliya bozorlariga bosqichma-bosqich integratsiyalashuvini taʼminlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. “Tijorat banklarining jamgʻarmalarni investitsiyalarga safarbar qilish hamda ularni moliyaviy va iqtisodiy nuqtayi nazardan eng samarali sohalarni moliyalashtirishga yoʻnaltirishni taʼminlovchi moliyaviy vositachi sifatidagi rolini oshirish”<sup>2</sup> kabi muhim vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarni samarali ijrosini taʼminlash, eng avvalo investitsion portfel diversifikatsiyasini oshirish, tijorat banklarining investitsion portfeli sifatini va loyihalarning samaradorligini baholash amaliyotini yaxshilash, tavakkalchiliklarni boshqarish tizimini takomillashtirish orqali bank daromadlari hajmini oshirish hamda investitsiya loyihalarini qoʻllab-quvvatlash mexanizmi (“loyihalar fabrikasi”)ni joriy qilishning oʻziga xos jihatlarini inobatga olgan holda sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ““Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi toʻgʻrisida”gi, 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son “2020–2025-yillarda Oʻzbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasi toʻgʻrisida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi

---

<sup>2</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi “2020–2025-yillarda Oʻzbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-5992-son farmoni.

to‘g‘risida”gi farmonlari, shuningdek, 2018-yil 23-martdagi PQ–3620-son “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2018-yil 21-dekabrdagi PQ–4071-son “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash, faoliyati samaradorligini oshirish va kredit siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 12-sentyabrdagi PQ–3270-son “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Mavzuning respublikada olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni yanada chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va erkinlashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish» ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Tijorat banklarining investitsiya faolligini oshirishning nazariy-uslubiy masalalari bo‘yicha xorijlik iqtisodchi olimlardan F.Allen, G.Gale, J.Keyns, M.S. Smirnova, L.I. Lukyanov, A.I.Karapetyan, A.L. Lazarenko, A.I. Balabanov, S.E. Ovsyannikova, O.I. Lavrushin, N.N. Мартыненко kabilar ilmiy-tadqiqotlar olib borishgan<sup>3</sup>.

---

<sup>3</sup>Allen, F., and G. Gale. “Financial Markets, Intermediaries and Intertemporal Smoothing”. Journal of Political Economy 105 (1997), 523–546.; Кейнс Дж. М.Общая теория занятости, процента и денег: пер. с англ. -М: Гелиос АРВ, 1999. -352 с.; Смирнова М.С. Развитие инвестиционной деятельности российских коммерческих банков в посткризисных условиях: автореф. дис...кан. эконом. наук. – Саратов, 2011. – 38 с.; Лукьянов Л.И. Инвестиционная деятельность коммерческих банков и направления её развития / Л.И. Лукьянов // Вестник евразийской науки. – 2024. – Т. 16. – № 2.; Карапетян А.И. Совершенствование инвестиционной политики коммерческих банков в условиях реализации антикризисных программ: автореф. дис...канд. эконом. наук. – Москва, 2011. – С.9-10.; Лазаренко, А. Л. Управление инвестиционной деятельностью коммерческих банков: основные направления / А.Л. Лазаренко // Вестник ОрелГАУ. - 2010 - №1 (10). - С. 50-52.; Балабанов И. Т. Банковское дело. СПб.: Питер, 2009. 304 с.; Овсянникова, С. Е. Инвестиционная деятельность коммерческого банка, проблемы в ее осуществлении / С.Е. Овсянникова, Т.А. Акимочкина. - 2015 г. - 6 стр.; Лаврушин, О.И. Банковское дело: учебник / О.И. Лаврушин, Н. И. Валенцева [и др.]; под ред. О.И. Лаврушина. - 12-е изд. – Москва: Кнорус, 2018. - 800 с.; Н.Н. Мартыненко. Банковское дело в 2 ч. Часть 2: учебник для СПО [Текст] / Н. Н. Мартыненко, О. М. Маркова, О. С. Рудакова, Н. В. Сергеева. — 2-е изд. – Москва: Издательство Юрайт, 2019. - 368 с.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan Sh.Z. Abdullaeva, N.X. Jumayev, N.G'. Karimov, A.A. Omonov, B.T. Berdiyarov, O.B. Sattarov, F. Dodiyeu, M. Axmedov, I.X. Kamilova, Sh.M. Rabimqulov, J.P.Bo'riyev, I.I. Jo'rayev va boshqa olimlarning ilmiy-tadqiqotlarida tijorat banklari investitsiya faoliyatining ayrim nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan<sup>4</sup>.

Tijorat banklarining investitsion faolligini oshirishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar va olib borilgan tadqiqotlarda, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining moliya bozoridagi ishtirokini samarali tashkil qilish uchun puxta investitsion siyosat ishlab chiqish, investitsion portfelni samarali boshqarish va investitsion faoliyat bilan bog'liq risklarni minimallashtirish masalalari kompleks va tizimli tarzda to'liq o'rganilmagan. Mazkur holat dissertatsiya ishida tadqiq etilgan ilmiy-amaliy muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning dolzarblik darajasini belgilab beradi.

**Dissertatsiya tadqiqotining oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot ishi Samarqand iqtisodiyot va servis institutining "Iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish sharoitida moliya-kredit munosabatlarini takomillashtirish masalalari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** tijorat banklarining investitsion faolligini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

---

<sup>4</sup> Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi. Darslik. -T.: "Iqtisod-moliya", 2017. – 732 b.; Jumayev N.X., Karimov N.G'. Investitsion faoliyatni moliyalashtirishda tijorat banklarining ishtirokini kuchaytirish masalalari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, sentyabr, 2011 yil.; Omonov A.A. Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. – Toshkent, 2008.; Berdiyarov B.T. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidiligi va to'lov qobiliyatini ta'minlash masalalari. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. — Toshkent, 2020. – B. 30.; Sattarov O.B. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi barqarorligini ta'minlash metodologiyasin takomillashtirish. I.f.d. ilm. dar. ol. uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – B. 25-26.; Dodiyeu F. Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo'llari, "Iqtisod va moliya", Toshkent, 2014, №3; Axmedov M. "Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlash va investitsion faolligini oshirish masalalari", "Iqtisod va moliya", Toshkent, №10, 2011.; Kamilova I.X. Tijorat banklarining investitsion kreditlar berish amaliyotini takomillashtirishning dolzarb masalalari. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 6, dekabr, 2019 yil.; Rabimqulov Sh.M. Tijorat banklari investitsiya faoliyatining samaradorligini oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafi doktori dissertatsiyasi avtoreferati. –T: TMI, 2024. – 58 b.; J.P.Bo'riyev. Tijorat banklarining fond bozoridagi faolligini oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafi doktori dissertatsiyasi avtoreferati. –T: TMI, 2023. – 52 b.; Jo'rayev I. O'zbekistonda tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan investitsion operatsiyalari va ularni rivojlantirish masalalari. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. №2, aprel, 2017 yil.

tijorat banklari tomonidan investitsion faoliyatni amalga oshirishning iqtisodiy mohiyatini tadqiq etish;

tijorat banklarining investitsiya faoliyatiga xos bo'lgan jihatlarni o'rganish;  
banklar investitsiya faoliyatining asosiy shakllariga oid xususiyatlarni tadqiq qilish;

bank tizimining investitsion faoliyatiga oid amaliy jihatlarni tahlil etish;  
tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi investitsiya faoliyatini tahlil qilish;

tijorat banklari investitsion faoliyatining joriy holati tahlilini amalga oshirish;

tijorat banklari tomonidan investitsiya siyosatini shakllantirish va uning samaradorligini oshirish istiqbollari o'rganish;

tijorat banklari investitsion salohiyatidan samarali foydalanish yo'nalishlarini yoritish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida tijorat banklarining investitsiya faoliyati tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** tijorat banklari tomonidan investitsion faoliyatni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar tizimi tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada guruhlash, abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, tarkibiy tahlil, ilmiy prognozlash, iqtisodiy-statistik, grafik-tahlil va boshqa usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

tijorat banklarining investitsion faoliyatdan oladigan daromadi hajmini oshirish va risklilik darajasini pasaytirish maqsadida bank tomonidan uzoq muddatli davlat qimmatli qog'ozlariga yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmini oshirish lozimligi asoslangan;

tijorat banklarining investitsion faolligini oshirishda korxonalar ustav kapitaliga yo'naltiriladigan investitsiyalarni ko'paytirish taklif etilgan;

tijorat banklarining investitsion salohiyatini oshirish, investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun uzoq muddatli barqaror resurslarni jalb etish maqsadida tijorat banklarining muddatli depozitlari hajmini 10 foizga oshirish orqali bankning investitsion resurslar bazasini kengaytirish taklif etilgan;

tijorat banklari investitsion portfeli daromadlilikini oshirish maqsadida banklar tomonidan past nominal bahoda sotib olingan qimmatli qog'ozlarni real bahosi oshganda sotish lozimligi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tijorat banklarining kredit va investitsiya portfeli diversifikatsiyasini oshirish, bank daromad manbalarini ko'paytirish, muammoli kreditlar (Non-performing loans) hajmini kamaytirish tavsiya etilgan;

tijorat banklarining investitsion portfeli sifatini va loyihalarning samaradorligini baholash amaliyotini yaxshilash, moliyaviy risklarni boshqarish tizimini takomillashtirishda bank tomonidan investitsion faoliyatni monitoring qilishning dastlabki (ex ante), oraliq (interim) va yakuniy (ex post) bosqichli tizimidan foydalanish yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

tijorat banklarining investitsion faoliyatini kengaytirishda sho'ba korxonalarni tashkil etish va ular ishtirokida investitsion loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda xorijiy davlatlar banklari bilan birgalikda sinditsiyalashtirilgan kreditlar bo'yicha resurslar jalb etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ularni iqtisodchi olimlarning tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish borasidagi ilmiy-nazariy qarashlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, ilg'or xorij tajribasini o'rganish va umumlashtirish, ma'lumotlar bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, xususan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, "Toshkent" RFB va tijorat banklari ma'lumotlari, shuningdek, boshqa amaliy ma'lumotlar tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.